Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Noyabr
№ 11, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNAL

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 284-sahifa.
2026-yil, №11. noyabr.

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLAR

MUXITDINOV SHOHIJAHON HUDOYOR O‘G‘LI
Barqaror cho‘l turizmi klasterlarini rejalashtirish va boshqarishning ko‘p mezonli modeli.....15
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, OYYARIQOVA SABRINA ZOHID QIZI, RUSTAMOVA ZEBINISO BEHZOD QIZI
Tashqi iqtisodiy faoliyatni asosiy mazmuni.....24
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
Viza rejimini liberallashtirishning kiruvchi turizmga ta’sirini baholash: gravitatsiya modeli va mashinali o‘qitish uyg‘unligi.....33
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, YUSUPOV ALPOMISHBEK FAZLIDDIN O‘G‘LI, ZAFAROV OYBEK DILSHODOVICH
Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy elementlari.....39
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
O‘zbekistonda kiruvchi turizmning makroiqtisodiy ta’siri va uni dinamik panel model asosida prognozlash.....48
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, AZAMAT ABDULLAYEV AKBAR O‘G‘LI, XASANOV BEHRUZ MA’MURJON O‘G‘LI
Tashqi iqtisodiy faoliyatga berilgan imtiyozlar.....54
DJURAYEVA IRODA BAHROM QIZI
Raqamli to‘lovlarning yashirin iqtisodiyotni qisqartirishdagi institutsional roli.....62
GAYBULLA KUCHKAROV
Qashqadaryo viloyatida moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini baholash va hududiy tafovutlarni qisqartirish yo‘llari.....71
SAYDIRASULOV LAZIZ ALIMOVICH
Soliq imtiyozlarining fiskal samaradorligini baholash va soliq xarajatlarini optimallashtirish yo‘nalishlari.....79
SAIDAXMEDOV NEMAT XAMIDOVICH
Raqamli transformatsiya sharoitida hududiy klasterlarning innovatsion rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish.....92
AZIMJON MUSAMUXAMEDOV
A composite charity index for assessing philanthropic organisations under partial disclosure: preliminary evidence from Uzbekistan.....97
IMINOV ZAFARBEK
Andijon viloyatida bandlik tuzilmasi, norasmiy bandlik va yashirin ishsizlikning statistik tahlili.....110
RAIMJANOV DEMIR RAIMJANXOJI O‘G‘LI
Hududiy sanoatning eksport salohiyati omillarini ekonometrik baholash va prognozlash (Andijon viloyati misolida).....124

SANGIROVA UMIDA RAVSHANOVNA
Suv tejovchi innovatsion texnologiyalarni joriy etishning xorijiy tajribasi va uni O‘zbekiston sharoitiga tadbiq etish yo‘nalishlari.....136
SHUKUROV SOBIR MAMASOLIEVICH
Household financial vulnerability in Uzbekistan: debt burden, regional disparities and a stress test.....143
TURSUNOVA DILNAVOZ DAVRON QIZI
Oziq-ovqat sanoati tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi samaradorligini integral indeks asosida baholash.....151
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, SHUKUROVA LOLA, O‘ROLOVA KAMOLA
Eksport-import operatsiyalari hisobi va auditini takomillashtirish bo‘yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar.....161
MUROD KHASANOVICH ABULKASIMOV
Economic security challenges in Central Asia: trade integration, water resource risks and interstate cooperation.....166
ODILOVA SITORA SAYFITDIN QIZI
Meva-sabzavot mahsulotlari eksportini rivojlantirishda raqamli marketing vositalaridan foydalanish.....175
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, ABDUG‘ANIYEV ORIFJON, XO‘JANOV SHODMON ASROR O‘G‘LI
Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalar maxsulotlarni inventarizatsiya jarayoni o‘tkazish tartibi.....182
SAFAROV BEXZOD ISMATOVIÇ
Tadqiqotçilarni motivatsiyalaşning nazariy yondaşuvlari va xorij tajribasi.....192
TURDIYEVA NIGORA AHMED QIZI
Yashil turizmni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning imkoniyatlari.....202
NUSRATILLOYEVA SHAHLO OLIM QIZI
Sun’iy intellekt sharoitida mehnat bozoridagi tarkibiy o‘zgarishlar: ijobiy va salbiy tendensiyalar tahlili.....210
DURUMOV TEMUR G‘OLIBOVICH
Sun’iy intellekt texnologiyalarini inson resurslarini boshqarish jarayonlariga joriy etish imkoniyatlari.....219
MAMADALIYEV ODILJON TOIROVICH
Hududlarni baholaş uçun yagona axborot bankini şakllantirişga doir yangiça yondaşuvlar.....227
UROQBOYEVA FARZUNA AXMADJONOVNA
Privatization of state assets through ipo: the uznif experience and its impact on Uzbekistan’s capital market.....237
ARZUOVA SHARGUL ANSATBAYEVNA, ABDIMURATOVA ALTINGUL KALBAEVNA
Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta’limda sun’iy intellektdan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....245

YUSUPOV ZULUNJON ZIYOYDINOVICH
Asosiy vositalardan foydalanish hisobini takomillashtirishning metodologik va uslubiy yo‘nalishlari.....252
DURUMOV TEMUR G‘OLIBOVICH
Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat resurslarini boshqarishning zamonaviy modellari.....263
JUMANIYOZOV FERUZBEK DILSHOD O‘G‘LI
Korxonalarning barqaror rivojlanishini ta’minlashda menejmentning roli.....271
MAMATKULOV KAXRAMON CHORIYEVICH
O‘zbekistonda aholi turmush darajasi holati va dinamikasini statistik tahlili.....277
ERGASHEV OLLOYOR FURQAT O‘G‘LI
Ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlarni faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlash (ABC) usuli asosida mahsulot tannarxini aniqlash.....284

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA XARAJATLARNI FAOLIYAT TURLARI BO‘YICHA TAQSIMLASH (ABC) USULI ASOSIDA MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASH

ERGASHEV OLLOYOR FURQAT O‘G‘LI
ISFT instituti Samarqand filiali
“Iqtisodiyot va xalqaro moliyaviy boshqaruv” kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: ergashevolloyor53@gmail.com
https://orcid.org/0009-0003-2654-1534

Annotatsiya. Ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot assortimentining kengayishi, buyurtma asosidagi va kichik partiyali ishlab chiqarish ulushining ortishi hamda texnologik jarayonlarning murakkablashuvi sharoitida umumishlab chiqarish xarajatlarini yagona baza bo‘yicha taqsimlash mahsulot tannarxini sezilarli darajada buzib ko‘rsatmoqda. Tadqiqotning maqsadi ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlarni faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlash (Activity-Based Costing – ABC) usulini qo‘llash orqali mahsulot tannarxini aniqlashning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishdan iborat. Tadqiqot jarayonida tizimli va qiyosiy tahlil, kalkulyatsiya, modellashtirish, guruhlash hamda ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. «Umid» Biznes Mchj mebel ishlab chiqarish korxonasi misolida an’anaviy usul va ABC usuli bo‘yicha hisob-kitoblar bajarilib, an’anaviy usul yuqori hajmli standart mahsulot tannarxini 10,9 foizga oshirib, kam hajmli buyurtma mahsuloti tannarxini esa 27,2 foizga kamaytirib ko‘rsatishi aniqlandi. Natijada an’anaviy hisobda 18,7 foiz rentabelli deb ko‘ringan mahsulot ABC bo‘yicha zarar keltirishi isbotlandi. Shuningdek, vaqtga asoslangan ABC (TDABC) usuli yordamida foydalanilmagan ishlab chiqarish quvvati xarajatlarini ajratish tartibi, ABC natijalarini milliy schyotlar rejasida aks ettirish yozuvlari va usulni korxonalarda bosqichma-bosqich joriy etish modeli taklif etildi.
Kalit so‘zlar: ABC usuli, faoliyat turlari, xarajat drayveri, umumishlab chiqarish xarajatlari, mahsulot tannarxi, kalkulyatsiya, TDABC, boshqaruv hisobi, foydalanilmagan quvvat.

Аннотация. В условиях расширения ассортимента продукции, роста доли заказного и мелкосерийного производства и усложнения технологических процессов распределение общепроизводственных расходов по единой базе существенно искажает себестоимость продукции производственных предприятий. Цель исследования – совершенствование научно-методических основ определения себестоимости продукции на основе метода распределения затрат по видам деятельности (Activity-Based Costing – ABC). В исследовании использованы методы системного и сравнительного анализа, калькулирования, моделирования, группировки и научного обобщения. На примере условного мебельного предприятия выполнены расчеты традиционным методом и методом ABC; установлено, что традиционный метод завышает себестоимость высокообъемного стандартного изделия на 10,9 % и занижает себестоимость малообъемного заказного изделия на 27,2 %. Доказано, что изделие, которое по традиционному расчету имеет рентабельность 18,7 %, по методу ABC является убыточным. Предложены порядок выделения затрат неиспользованной производственной мощности на основе метода TDABC, бухгалтерские записи для отражения результатов ABC в национальном плане счетов и модель поэтапного внедрения метода на предприятиях.
Ключевые слова: метод ABC, виды деятельности, драйвер затрат, общепроизводственные расходы, себестоимость продукции, калькулирование, TDABC, управленческий учет, неиспользованная мощность.

Abstract. As manufacturing companies broaden their product range, increase the share of custom and small-batch production and operate more complex technological processes, allocating manufacturing overheads on a single base significantly distorts product costs. The aim of this study is to improve the scientific and methodological foundations for determining product cost using activity-based costing (ABC). The research employs systemic and comparative analysis, costing, modelling, grouping and

scientific generalisation. Using a hypothetical furniture manufacturer, calculations under the traditional method and ABC show that the traditional method overstates the cost of the high-volume standard product by 10.9% and understates the cost of the low-volume custom product by 27.2%. A product that appears to earn an 18.7% margin under traditional costing is shown to be loss-making under ABC. The study also proposes a procedure for separating the cost of unused production capacity using time-driven ABC (TDABC), journal entries for reflecting ABC results in the national chart of accounts, and a phased model for implementing the method in enterprises.
Keywords: activity-based costing, activities, cost driver, manufacturing overheads, product cost, costing, TDABC, management accounting, unused capacity.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish korxonalarining raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan mahsulot tannarxini qanchalik aniq bilishi va uni boshqara olishiga bog‘liq. Narx belgilash, assortiment tarkibini shakllantirish, buyurtmani qabul qilish yoki rad etish, ishlab chiqarishni kengaytirish yoki ayrim mahsulotlardan voz kechish kabi boshqaruv qarorlarining barchasi mahsulot birligi tannarxi to‘g‘risidagi axborotga tayanadi. Agar bu axborot buzilgan bo‘lsa, korxona rahbariyati zarar keltirayotgan mahsulotni foydali deb hisoblashi, aksincha, raqobatbardosh mahsulot narxini asossiz oshirib, bozor ulushini yo‘qotishi mumkin.

Mahsulot tannarxining to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar qismi (xom ashyo, materiallar, asosiy ishchilar mehnat haqi) odatda aniq hisobga olinadi, chunki ular muayyan mahsulotga bevosita tegishli bo‘ladi. Asosiy muammo bilvosita, ya’ni umumishlab chiqarish xarajatlarini mahsulotlar o‘rtasida taqsimlashda yuzaga keladi. Uskunalarni sozlash, materiallarni qabul qilish va sexlar o‘rtasida tashish, sifat nazorati, texnik xizmat ko‘rsatish, mahsulotni loyihalash kabi xarajatlar bir vaqtning o‘zida bir nechta mahsulotga xizmat qiladi. O‘zbekistonda bunday xarajatlarning tarkibi va ularni mahsulot tannarxiga kiritish tartibi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom bilan tartibga solinadi[2]. Biroq Nizom xarajatlarning tarkibini belgilagani holda, umumishlab chiqarish xarajatlarini mahsulot turlari o‘rtasida qaysi baza bo‘yicha taqsimlashni korxonaning hisob siyosatiga qoldiradi.

Amaliyotda mahalliy korxonalarning aksariyati umumishlab chiqarish xarajatlarini bitta baza – asosiy ishchilarning mehnat haqi yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat soatlariga mutanosib ravishda taqsimlaydi. Bu usul XX asr boshidagi ishlab chiqarish sharoitida, ya’ni qo‘l mehnati ulushi yuqori, mahsulot turlari kam va bilvosita xarajatlar ulushi past bo‘lgan davrda o‘zini oqlagan. Bugungi kunda esa avtomatlashtirish darajasi oshgani, mehnat haqining tannarxdagi ulushi kamaygani va bilvosita xarajatlar ko‘paygani sababli bitta taqsimlash bazasi xarajatlarning haqiqiy kelib chiqish sabablarini aks ettira olmaydi. Natijada yuqori hajmda ishlab chiqariladigan standart mahsulotlar murakkab va kam hajmli mahsulotlar xarajatlarini “ko‘tarib yuradi”, ya’ni o‘zaro subsidiyalash yuzaga keladi.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

Bu masala moliyaviy hisobot nuqtayi nazaridan ham dolzarb. Tovar-moddiy zaxiralar hisobiga oid milliy standart (BHMS 4) va xalqaro standart IAS 2 “Zaxiralar” ishlab chiqarish qo‘shimcha xarajatlarini zaxiralar tannarxiga tizimli va asoslangan tarzda taqsimlashni, doimiy qo‘shimcha xarajatlarni esa ishlab chiqarish quvvatlarining me’yoriy darajasiga asoslanib taqsimlashni talab qiladi[5]. MHXSga o‘tayotgan korxonalar uchun bu talab xarajatlarni taqsimlash bazasini tanlashda asoslanganlik masalasini yanada keskinlashtiradi.

Ushbu muammoni hal etishning xalqaro amaliyotda keng tan olingan yo‘llaridan biri xarajatlarni faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlash usuli (Activity-Based Costing – ABC) hisoblanadi. Usulning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, xarajatlarni mahsulot emas, balki faoliyat turlari (jarayonlar) yuzaga keltiradi, mahsulotlar esa ushbu faoliyatlarni iste’mol qiladi. Shu sababli bilvosita xarajatlar avval faoliyat turlariga, so‘ngra har bir mahsulotning faoliyatlarni iste’mol qilish darajasiga mutanosib ravishda mahsulotlarga taqsimlanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi ishlab chiqarish korxonalarida ABC usulini qo‘llash orqali mahsulot tannarxini aniqlashning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, an’anaviy usul bilan qiyosiy tahlil asosida usulning afzalliklarini raqamli asoslash hamda uni mahalliy buxgalteriya hisobi amaliyotiga joriy etish yo‘llarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida an’anaviy taqsimlash usullarining cheklovlarini aniqlash, ABC usulining konseptual modelini shakllantirish, «Umid» Biznes Mchj korxona misolida hisob-kitoblarni bajarish, vaqtga asoslangan ABC (TDABC) imkoniyatlarini baholash va ABC natijalarini milliy schyotlar rejasida aks ettirish tartibini taklif etish belgilandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bilvosita xarajatlarni taqsimlashning an’anaviy usullariga nisbatan ilmiy tanqid XX asrning 80-yillarida keng tus oldi. H.T. Johnson va R.S. Kaplan o‘zlarining “Relevance Lost” asarida boshqaruv hisobi tizimlari ishlab chiqarish texnologiyalaridagi o‘zgarishlardan orqada qolganini, mehnat soatlariga asoslangan taqsimlash esa avtomatlashgan ishlab chiqarish sharoitida mahsulot tannarxi haqida noto‘g‘ri axborot berishini asoslab berdi[6]. Mualliflarning fikricha, moliyaviy hisobot talablariga moslashtirilgan tannarx tizimlari boshqaruv qarorlari uchun yaroqli axborot bera olmaydi.

ABC usulining nazariy va amaliy asoslari R. Cooper va R.S. Kaplan tomonidan ishlab chiqilgan. Mualliflar “Measure Costs Right: Make the Right Decisions” maqolasida an’anaviy tizimlar yuqori hajmli mahsulotlar tannarxini oshirib, kam hajmli va murakkab mahsulotlar tannarxini kamaytirib ko‘rsatishini korxonalar misolida isbotladi[7]. Keyinchalik R.S. Kaplan va R. Cooper “Cost & Effect” asarida ABC tizimini korxonaning operatsion va moliyaviy hisob tizimlari bilan integratsiyalash g‘oyasini ilgari surdi va faoliyat turlarini ierarxik tasniflashni (mahsulot birligi, partiya, mahsulot turi va korxona darajasidagi faoliyatlar) taklif etdi[8]. Ushbu tasnif hozirgi kunda ABC modellarini qurishning metodologik asosi hisoblanadi.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

ABC usulining amaliyotda tarqalishi bo‘yicha empirik tadqiqotlar ham olib borilgan. J. Innes va F. Mitchell Buyuk Britaniyaning yirik kompaniyalari o‘rtasida o‘tkazgan so‘rovnomasida ABC usuliga qiziqish yuqori bo‘lsa-da, uni to‘liq joriy etgan korxonalar ulushi nisbatan kamligini, asosiy to‘siqlar sifatida esa joriy etish xarajatlari va ma’lumot yig‘ish murakkabligini qayd etgan[11]. M. Gosselin esa ABC usulini qabul qilish va amalda joriy etish korxona strategiyasi hamda tashkiliy tuzilmasiga bog‘liq ekanini, ya’ni usulni qabul qilish to‘g‘risida qaror qabul qilgan korxonalarning barchasi ham uni muvaffaqiyatli joriy eta olmasligini ko‘rsatgan[12].

ABC usulining asosiy kamchiligi – ma’lumot yig‘ish va modelni yangilashning qimmatligi – R.S. Kaplan va S.R. Anderson tomonidan taklif etilgan vaqtga asoslangan ABC (Time-Driven Activity-Based Costing – TDABC) usulida bartaraf etishga harakat qilingan. TDABC usulida xodimlardan faoliyatlarga sarflangan vaqt ulushlari so‘ralmaydi, buning o‘rniga resurslar quvvati birligining qiymati va har bir operatsiyaga sarflanadigan vaqt me’yorlari (vaqt tenglamalari) qo‘llaniladi[9]. Usulning muhim afzalligi foydalanilmagan quvvat xarajatlarini alohida ko‘rsatish imkoniyatidir.

C. Drury, shuningdek S.M. Datar va M.V. Rajan darsliklarida ABC usuli boshqaruv hisobining asosiy tannarx tizimlaridan biri sifatida tizimli bayon etilgan bo‘lib, usulni qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lgan holatlar – bilvosita xarajatlar ulushi yuqori bo‘lgan, mahsulotlar turli-tumanligi katta bo‘lgan va mahsulotlar resurslarni turlicha iste’mol qiladigan korxonalar ajratib ko‘rsatilgan[13].

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi, ularni kalkulyatsiya moddalari bo‘yicha guruhlash va tannarxni kalkulyatsiya qilish usullari (normativ, buyurtmali, jarayonli) yetarlicha o‘rganilgan. Biroq ABC usulini milliy normativ baza, xususan, xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom va milliy schyotlar rejasi bilan uyg‘unlashtirgan holda qo‘llash, uning natijalarini buxgalteriya yozuvlarida aks ettirish hamda foydalanilmagan quvvat xarajatlarini ajratish masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Aynan shu jihat mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

TADQIQOT USULLARI

Tadqiqot jarayonida bir qator umumilmiy va maxsus usullardan foydalanildi. Bilvosita xarajatlarni taqsimlashga oid nazariy yondashuvlarni o‘rganishda ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez usullari qo‘llanildi. An’anaviy va ABC usullarining mazmuni, afzalliklari va cheklovlari qiyosiy tahlil usuli yordamida baholandi. Faoliyat turlarini aniqlash va ularni ierarxik darajalar bo‘yicha tasniflashda guruhlash usulidan foydalanildi.

Usulning amaliy natijadorligini baholash uchun «Umid» Biznes Mchj mebel ishlab chiqarish korxonasining iqtisodiy-matematik modeli tuzildi. Modelda uch turdagi mahsulot (yuqori hajmli standart, o‘rta hajmli va kam hajmli buyurtma mahsuloti), beshta asosiy faoliyat turi va ularga mos xarajat drayverlari belgilandi. Boshlang‘ich ma’lumotlar mebel ishlab chiqarishga xos texnologik

nisbatlarni aks ettiradigan «Umid» Biznes Mchj ko‘rsatkichlar sifatida shakllantirildi. Hisob-kitoblar kalkulyatsiya usuli bilan bajarildi va natijalar an’anaviy usul bo‘yicha olingan ko‘rsatkichlar bilan taqqoslandi. Foydalanilmagan quvvat xarajatlarini aniqlashda TDABC usulining vaqt tenglamalari qo‘llanildi. Xulosa va takliflarni shakllantirishda induksiya, deduksiya va ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. An’anaviy taqsimlash usullarining cheklovlari va ABC usulining mohiyati.

An’anaviy tannarx tizimida umumishlab chiqarish xarajatlari bir yoki bir nechta sexlar bo‘yicha yig‘iladi va hajmga bog‘liq bitta baza (to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat soatlari, asosiy ishchilar mehnat haqi yoki mashina-soatlar) bo‘yicha mahsulotlarga taqsimlanadi. Bu yondashuv barcha bilvosita xarajatlar ishlab chiqarish hajmiga mutanosib ravishda o‘zgaradi degan farazga asoslanadi. Ammo amaliyotda xarajatlarning katta qismi hajmga emas, balki partiyalar soni, mahsulot turlari soni, buyurtmalar murakkabligi kabi omillarga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, uskunani sozlash xarajati 1000 dona yoki 50 dona mahsulot ishlab chiqarilishidan qat’i nazar bir xil bo‘ladi, ya’ni u partiya darajasidagi xarajat hisoblanadi.

ABC usuli xarajatlarni ularning kelib chiqish sababiga ko‘ra taqsimlaydi. Usulning asosiy tushunchalari quyidagilardan iborat: resurslar – korxona sarflaydigan iqtisodiy resurslar (mehnat, uskunalar, energiya, materiallar); faoliyat turi – resurslarni iste’mol qiluvchi va ma’lum natija beruvchi takrorlanuvchi ish yoki jarayon; xarajat drayveri – faoliyat hajmini o‘lchovchi va xarajatlar miqdoriga sabab bo‘luvchi omil; xarajat obyekti – xarajatlari aniqlanayotgan mahsulot, xizmat, buyurtma yoki mijoz. An’anaviy usul va ABC usulining asosiy farqlari 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval

An’anaviy usul va ABC usulining qiyosiy tavsifi

Taqqoslash mezoni	An’anaviy usul	ABC usuli
Xarajatlarni yig‘ish obyekti	Sexlar, bo‘linmalar	Faoliyat turlari (jarayonlar)
Taqsimlash bazasi	Bitta, hajmga bog‘liq baza (mehnat soati, mehnat haqi)	Har bir faoliyat uchun alohida xarajat drayveri
Xarajatlar tasnifi	To‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita	Mahsulot birligi, partiya, mahsulot turi va korxona darajasidagi xarajatlar
Taqsimlash bosqichlari	Bir bosqichli yoki sexlar orqali ikki bosqichli	Ikki bosqichli: resurslar → faoliyatlar → mahsulotlar
Tannarx aniqligi	Murakkab va kam hajmli mahsulotlar uchun past	Mahsulotlar turli-tumanligi sharoitida yuqori
Joriy etish va yuritish xarajati	Past	Yuqori (TDABC bilan kamaytiriladi)
Boshqaruv uchun axborot	Asosan tannarx summasi	Tannarx, jarayonlar samaradorligi va foydalanilmagan quvvat

Manba: R. Cooper, R.S. Kaplan va C. Drury yondashuvlari asosida muallif ishlanmasi.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

1-jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, ABC usulining an’anaviy usuldan asosiy ustunligi xarajatlar va ularning kelib chiqish sabablari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniq aks ettirishidir. Biroq bu ustunlik qo‘shimcha ma’lumot yig‘ish va modelni yuritish xarajatlari evaziga erishiladi. Shu sababli ABC usulini joriy etish maqsadga muvofiqligi korxonada bilvosita xarajatlar ulushi, mahsulotlar turli-tumanligi va mahsulotlarning resurslarni iste’mol qilishdagi farqlariga qarab baholanishi lozim.

2. ABC usulining konseptual modeli.

ABC usulida bilvosita xarajatlar ikki bosqichda taqsimlanadi (1-rasm). Birinchi bosqichda 2510 “Umumishlab chiqarish xarajatlari” schyotida yig‘ilgan resurs xarajatlari resurs drayverlari (xodimlarning faoliyatlarga sarflagan vaqt ulushi, egallagan maydon, uskunalar quvvati va boshqalar) yordamida faoliyat turlari bo‘yicha xarajat markazlariga (faoliyat pullariga) taqsimlanadi. Ikkinchi bosqichda har bir faoliyat bo‘yicha yig‘ilgan xarajatlar faoliyat drayverlari asosida mahsulotlarga o‘tkaziladi.



Manba: muallif ishlanmasi.

1-rasm. ABC usulida umumishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash sxemasi

Modelning ikkinchi bosqichida har bir faoliyat uchun drayver stavkasi quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$r_j = C_j / D_j \quad (1)$$

Bu yerda: r_j – j-faoliyat drayverining stavkasi; C_j – j-faoliyat bo‘yicha yig‘ilgan xarajatlar summasi; D_j – j-faoliyat drayverining umumiy hajmi.

i-mahsulotga taqsimlanadigan bilvosita xarajatlar summasi va mahsulot birligi tannarxi quyidagicha hisoblanadi:

$$OH_i = \Sigma_j (r_j \times d_{ij}) \quad (2)$$

$$TC_i = DM_i + DL_i + OH_i / Q_i \quad (3)$$

Bu yerda: OH_i – i-mahsulotga taqsimlangan bilvosita xarajatlar; d_{ij} – i-mahsulot tomonidan iste'mol qilingan j-faoliyat drayveri hajmi; TC_i – i-mahsulot birligi tannarxi; DM_i va DL_i – mahsulot birligiga to'g'ri keladigan to'g'ridan-to'g'ri material va mehnat xarajatlari; Q_i – i-mahsulot ishlab chiqarish hajmi.

An'anaviy usulda esa barcha bilvosita xarajatlar yagona stavka bo'yicha taqsimlanadi:

$$r = \Sigma C / \Sigma L,\ OH_i^{tr} = r \times L_i \qquad (4)$$

Bu yerda: ΣC – umumishlab chiqarish xarajatlarining jami summasi; ΣL – to'g'ridan-to'g'ri mehnat soatlarining jami hajmi; L_i – i-mahsulotga sarflangan mehnat soatlari.

Faoliyat turlarini to'g'ri tanlash ABC modelining sifatini belgilaydi. Amaliyotda faoliyatlar soni juda ko'p bo'lsa, model murakkablashib, uni yuritish qimmatlashadi; juda kam bo'lsa, aniqlik pasayadi. Shu sababli o'xshash drayverga ega faoliyatlarni birlashtirish va o'rta korxonalar uchun 5–10 ta asosiy faoliyat bilan cheklanish tavsiya etiladi.

Faoliyatlarni tanlashda ularni xarajatlarning yuzaga kelish darajasiga ko'ra ierarxik tasniflash muhim ahamiyatga ega. R.S. Kaplan va R. Cooper taklif etgan tasnif asosida mebel ishlab chiqarish korxonasi uchun faoliyat darajalari, ularning xususiyatlari va tegishli drayverlar 2-jadvalda tizimlashtirildi.

2-jadval

Faoliyat turlarining ierarxik tasnifi
(mebel ishlab chiqarish korxonasi misolida)

Faoliyat darajasi	Xarajatlarning xususiyati	Korxonadagi faoliyatlar misoli	Xarajat drayverlari
Mahsulot birligi darajasi	Har bir dona uchun takrorlanadi, ishlab chiqarish hajmiga mutanosib o'zgaradi	Mashina ishlashi, kesish va silliqlash, bo'yash, energiya iste'moli	Mashina-soatlar, kVt·soat, ishlab chiqarilgan donalar soni
Partiya darajasi	Har bir partiya uchun bir marta yuzaga keladi, partiyadagi donalar soniga bog'liq emas	Uskunani sozlash, materiallarni qabul qilish va tashish, partiya bo'yicha sifat nazorati	Sozlashlar soni, tashishlar soni, tekshiruvlar soni
Mahsulot turi darajasi	Muayyan mahsulot turini ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlaydi, hajm va partiyalar soniga bog'liq emas	Mahsulotni loyihalash, texnik hujjatlarni yuritish, modelga o'zgartirish kiritish	Muhandislik soatlari, texnik o'zgarishlar soni, detallar turlari soni
Korxona darajasi	Korxona faoliyatini umuman ta'minlaydi, muayyan mahsulot bilan sababiy bog'lanmaydi	Sex rahbariyati, bino va hududni saqlash, qo'riqlash	Mahsulotlarga taqsimlanmaydi yoki davr xarajati sifatida qaraladi

Manba: R.S. Kaplan va R. Cooper tasnifi asosida muallif ishlanmasi.

2-jadvaldan ko'rinadiki, an'anaviy usul faqat mahsulot birligi darajasidagi xarajatlarni to'g'ri taqsimlay oladi, chunki uning taqsimlash bazasi hajmga bog'liq. Partiya va mahsulot turi darajasidagi xarajatlar esa hajmga bog'liq bo'lmagani sababli, ularni mehnat soatlari bo'yicha taqsimlash yuqori hajmli mahsulotlarga ortiqcha xarajat yuklaydi. Korxona darajasidagi xarajatlarni esa mahsulotlarga taqsimlash boshqaruv qarorlari uchun axborot qiymatini pasaytiradi, shu sababli

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

ABC amaliyotida ular ko‘pincha mahsulot tannarxidan tashqarida qoldiriladi yoki moliyaviy hisobot maqsadlari uchun alohida taqsimlanadi.

Drayverlarni tanlashda uch mezonga amal qilish tavsiya etiladi: birinchidan, drayver bilan faoliyat xarajatlari o‘rtasida sababiy bog‘liqlik mavjud bo‘lishi; ikkinchidan, drayver bo‘yicha ma’lumotlar korxonaning mavjud hisob yoki ishlab chiqarish tizimlaridan qo‘shimcha xarajatsiz olinishi; uchinchidan, drayver xodimlarning xatti-harakatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, masalan, sozlashlar soni drayveri partiyalarni yiriklashtirishga undashi.

3. “Umid biznes” Mchj korxona misolida ABC usuli bo‘yicha hisob-kitob.

Usulning amaliy natijadorligini baholash maqsadida Samarqand viloyatidagi mebel ishlab chiqarish korxonalariga xos texnologik nisbatlar asosida**.** “Umid biznes” Mchj korxona modeli tuzildi. Korxona uch turdagi mahsulot ishlab chiqaradi: A – standart stul (yuqori hajmli, oddiy texnologiya), B – ofis stoli (o‘rta hajmli) va C – buyurtma asosidagi shkaf (kam hajmli, murakkab, individual loyihalashni talab qiladi). Korxonaning yillik umumishlab chiqarish xarajatlari 2 550 mln so‘mni tashkil etadi. Boshlang‘ich ma’lumotlar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

“Umid biznes” MCHJ korxonaning boshlang‘ich ma’lumotlari

Ko‘rsatkichlar	A – standart stul	B – ofis stoli	C – buyurtma shkafi	Jami
Yillik ishlab chiqarish hajmi, dona	20 000	5 000	1 000	26 000
To‘g‘ridan-to‘g‘ri material xarajatlari, ming so‘m/dona	180	650	1 900	–
To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat soati, soat/dona	1,5	3,0	6,0	–
Jami to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat soatlari, soat	**30 000**	**15 000**	**6 000**	**51 000**
To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat haqi, ming so‘m/dona (40 ming so‘m/soat)	60	120	240	–
Mashina-soat, soat/dona	0,8	2,0	5,0	–
Sotish narxi, ming so‘m/dona	380	1 150	3 000	–

Manba: muallif tomonidan shakllantirilgan ma’lumotlar.

An’anaviy usulda korxona umumishlab chiqarish xarajatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat soatlariga mutanosib ravishda taqsimlaydi. (4) formula bo‘yicha yagona taqsimlash stavkasi quyidagicha:

r = 2 550 000 ming so‘m / 51 000 soat = 50 ming so‘m/soat

Demak, an’anaviy usulda mahsulot birligiga A uchun 75 ming so‘m (1,5 × 50), B uchun 150 ming so‘m (3,0 × 50) va C uchun 300 ming so‘m (6,0 × 50) bilvosita xarajat taqsimlanadi.

ABC usulini qo‘llash uchun korxonaning umumishlab chiqarish xarajatlari birinchi bosqichda beshta faoliyat turi bo‘yicha guruhlandi va har bir faoliyat uchun xarajat drayveri hamda uning stavkasi (1) formula bo‘yicha aniqlandi (4-jadval).

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

4-jadval

Faoliyat turlari, xarajat drayverlari va drayver stavkalari

Faoliyat turi	Faoliyat darajasi	Xarajatlar, mln so‘m	Xarajat drayveri	Drayver hajmi	Drayver stavkasi
Uskunani sozlash	Partiya	420	Sozlashlar soni	210	2,0 mln so‘m/sozlash
Materiallarni qabul qilish va tashish	Partiya	360	Tashishlar soni	800	0,45 mln so‘m/tashish
Sifat nazorati	Partiya	300	Tekshiruvlar soni	1 000	0,3 mln so‘m/tekshiruv
Mashina ishlashi	Mahsulot birligi	930	Mashina-soatlar	31 000	30 ming so‘m/mashina-soat
Loyihalash va texnik tayyorlash	Mahsulot turi	540	Muhandislik soatlari	1 800	0,3 mln so‘m/soat
Jami	**–**	**2 550**	**–**	**–**	**–**

Manba: muallif hisob-kitoblari.

4-jadvaldan ko‘rinadiki, umumishlab chiqarish xarajatlarining faqat 36,5 foizi (930 mln so‘m) mahsulot birligi darajasidagi, ya’ni ishlab chiqarish hajmiga bevosita bog‘liq xarajatlardir. Qolgan 63,5 foizi partiyalar soni va mahsulot turlarining murakkabligiga bog‘liq. Bu holat an’anaviy usulning hajmga bog‘liq yagona baza bo‘yicha taqsimlashi xarajatlarning asosiy qismini noto‘g‘ri taqsimlashini anglatadi.

Ikkinchi bosqichda har bir mahsulotning faoliyat drayverlarini iste’mol qilish hajmi aniqlandi va (2) formula bo‘yicha bilvosita xarajatlar mahsulotlarga taqsimlandi (5-jadval).

5-jadval

Mahsulotlar bo‘yicha faoliyat drayverlari iste’moli va ABC bo‘yicha taqsimlangan xarajatlar

Faoliyat turi	A: drayver hajmi	A: xarajat, mln so‘m	B: drayver hajmi	B: xarajat, mln so‘m	C: drayver hajmi	C: xarajat, mln so‘m
Uskunani sozlash	40	80,0	60	120,0	110	220,0
Materiallarni qabul qilish va tashish	300	135,0	250	112,5	250	112,5
Sifat nazorati	200	60,0	300	90,0	500	150,0
Mashina ishlashi	16 000	480,0	10 000	300,0	5 000	150,0
Loyihalash va texnik tayyorlash	200	60,0	500	150,0	1 100	330,0
Jami bilvosita xarajatlar	**–**	**815,0**	**–**	**772,5**	**–**	**962,5**
Mahsulot birligiga, ming so‘m	**–**	**40,75**	**–**	**154,50**	**–**	**962,50**

Manba: muallif hisob-kitoblari.

5-jadval ma’lumotlari mahsulotlarning faoliyatlarni iste’mol qilish tuzilmasidagi keskin farqlarni ko‘rsatadi. C mahsuloti umumiy ishlab chiqarish hajmining atigi 3,8 foizini tashkil etgani holda, korxonadagi barcha sozlashlarning

52,4 foizini, sifat tekshiruvlarining 50 foizini va muhandislik soatlarining 61,1 foizini iste'mol qiladi. Aksincha, A mahsuloti hajm bo'yicha 76,9 foiz ulushga ega bo'lsa-da, sozlashlarning atigi 19 foizini talab qiladi. Bilvosita xarajatlarning jami summasi ikkala usulda ham 2 550 mln so'mga teng, ya'ni ABC xarajatlar summasini emas, balki ularning mahsulotlar o'rtasidagi taqsimotini o'zgartiradi.

Ikkala usul bo'yicha aniqlangan mahsulot birligi tannarxi va rentabellik ko'rsatkichlari 6-jadvalda taqqoslandi.

6-jadval

An'anaviy usul va ABC usuli bo'yicha mahsulot birligi tannarxi va rentabellik

Ko'rsatkichlar	A – standart stul	B – ofis stoli	C – buyurtma shkafi
To'g'ridan-to'g'ri material va mehnat xarajatlari, ming so'm	240,00	770,00	2 140,00
Bilvosita xarajatlar (an'anaviy), ming so'm	75,00	150,00	300,00
Bilvosita xarajatlar (ABC), ming so'm	40,75	154,50	962,50
Birlik tannarxi (an'anaviy), ming so'm	315,00	920,00	2 440,00
Birlik tannarxi (ABC), ming so'm	280,75	924,50	3 102,50
Tannarxdagi farq, ming so'm	–34,25	+4,50	+662,50
Tannarxdagi farq, %	–10,9	+0,5	+27,2
Sotish narxidan rentabellik (an'anaviy), %	17,1	20,0	18,7
Sotish narxidan rentabellik (ABC), %	26,1	19,6	–3,4
Yalpi foyda (an'anaviy), mln so'm	1 300,0	1 150,0	560,0
Yalpi foyda (ABC), mln so'm	1 985,0	1 127,5	–102,5

Manba: muallif hisob-kitoblari.

6-jadval natijalari tadqiqotning asosiy xulosasini raqamli tasdiqlaydi. An'anaviy usul yuqori hajmli A mahsuloti tannarxini 34,25 ming so'mga (10,9 foiz) oshirib, kam hajmli C mahsuloti tannarxini esa 662,50 ming so'mga (27,2 foiz) kamaytirib ko'rsatadi. O'rta hajmli B mahsuloti uchun ikkala usul natijalari deyarli bir xil (farq 0,5 foiz). Natijalar 2-rasmda grafik ko'rinishda tasvirlangan.

Eng muhim boshqaruv xulosasi C mahsulotiga tegishli. An'anaviy hisobga ko'ra, bu mahsulot 18,7 foiz rentabellik bilan korxonaga yiliga 560 mln so'm yalpi foyda keltiradi va rahbariyat uni kengaytirishga moyil bo'lishi mumkin. ABC bo'yicha esa C mahsulotining haqiqiy tannarxi (3 102,50 ming so'm) sotish narxidan (3 000 ming so'm) yuqori bo'lib, har bir dona 102,50 ming so'm, jami yiliga 102,5 mln so'm zarar keltiradi. Korxonaning umumiy yalpi foydasi ikkala usulda ham 3 010 mln so'mga teng, ammo an'anaviy usulda A mahsulotining 685 mln so'm foydasi yashirin ravishda C va qisman B mahsulotlariga "o'tkazilgan".

Bu natija korxona uchun quyidagi boshqaruv qarorlarini asoslaydi: C mahsuloti narxini kamida tannarx darajasiga, ya'ni 3 102,50 ming so'mdan yuqori qilib qayta ko'rib chiqish; buyurtma shkaflari uchun minimal partiya hajmini belgilash orqali sozlashlar sonini qisqartirish; namunaviy modullar yaratib, loyihalash soatlarini kamaytirish; A mahsuloti bo'yicha esa raqobatchilarga nisbatan narxni pasaytirish orqali bozor ulushini kengaytirish imkoniyatini baholash.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245



Manba: muallif ishlanmasi.

2-rasm. An'anaviy usul va ABC usuli bo'yicha mahsulot birligi tannarxi

4. Vaqtga asoslangan ABC (TDABC) usuli yordamida foydalanilmagan quvvatni aniqlash.

An'anaviy ABC usulining muhim cheklovi shundaki, u faoliyat bo'yicha yig'ilgan xarajatlarning barchasini mahsulotlarga taqsimlaydi va foydalanilmagan quvvat xarajatlarini mahsulot tannarxiga "singdirib yuboradi". Natijada quvvatdan to'liq foydalanilmagan davrlarda mahsulot tannarxi sun'iy ravishda oshib ketadi. TDABC usulida bu muammo quvvat birligining qiymatini aniqlash orqali hal etiladi:

$$CCR = C_j / T_j^p \quad (5)$$

$$t_k = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \ldots + \beta_n X_n \quad (6)$$

Bu yerda: CCR – quvvat birligi (bir daqiqa) qiymati; T_j^p – j-faoliyatning amaliy quvvati (daqiqalarda); t_k – k-operatsiyaga sarflanadigan vaqt; β_0 – operatsiyaning bazaviy vaqti; β_n – n-omil uchun qo'shimcha vaqt; X_n – omil mavjudligini bildiruvchi o'zgaruvchi (1 yoki 0).

«Umid» Biznes Mchj korxonada uskunani sozlash faoliyati misolida TDABC usuli qo'llanildi. Sozlash brigadasining yillik amaliy quvvati 84 000 daqiqani, faoliyat xarajatlari esa 420 mln so'mni tashkil etadi. (5) formula bo'yicha quvvat birligi qiymati 5 ming so'm/daqiqaga teng (420 000 ming so'm / 84 000 daqiqa). Bitta sozlash uchun vaqt tenglamasi quyidagicha belgilandi:

$$t = 180 + 30 \times X_1 + 120 \times X_2 \quad (7)$$

Bu yerda: 180 – standart sozlashning bazaviy vaqti, daqiqa; X_1 – yangi rang yoki material turiga o'tish (1 – ha, 0 – yo'q); X_2 – individual loyiha bo'yicha nostandart sozlash (1 – ha, 0 – yo'q). Hisob-kitob natijalari 7-jadvalda keltirilgan.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

7-jadval

Uskunani sozlash faoliyati bo‘yicha TDABC hisob-kitobi

Ko‘rsatkichlar	A – standart stul	B – ofis stoli	C – buyurtma shkafi	Jami
Sozlashlar soni	40	60	110	210
Bitta sozlash vaqti, daqiqa	180	210	330	–
Sarflangan vaqt, daqiqa	7 200	12 600	36 300	56 100
TDABC bo‘yicha taqsimlangan xarajat, mln so‘m	36,0	63,0	181,5	280,5
An’anaviy ABC bo‘yicha taqsimlangan xarajat, mln so‘m	80,0	120,0	220,0	420,0
Foydalanilmagan quvvat, daqiqa	–	–	–	27 900
Foydalanilmagan quvvat xarajati, mln so‘m	–	–	–	139,5

Manba: muallif hisob-kitoblari.

7-jadval ma’lumotlari sozlash brigadasi quvvatining faqat 66,8 foizidan foydalanilayotganini, 33,2 foizi (27 900 daqiqa yoki 139,5 mln so‘m) esa band qilinmaganini ko‘rsatadi. An’anaviy ABC usulida ushbu summa ham mahsulotlarga taqsimlanib, ularning tannarxini oshirgan edi. TDABC esa mahsulotlarga faqat haqiqatda iste’mol qilingan quvvat qiymatini o‘tkazadi, foydalanilmagan quvvat xarajatlarini esa boshqaruv e’tiboriga alohida ko‘rsatkich sifatida chiqaradi. Sozlash xarajatlari TDABC bo‘yicha taqsimlanganda mahsulot birligi tannarxi A uchun 278,55 ming so‘mga, B uchun 913,10 ming so‘mga va C uchun 3 064,00 ming so‘mga kamayadi. Biroq C mahsulotining tannarxi bu holatda ham sotish narxidan (3 000 ming so‘m) yuqori bo‘lib qoladi, ya’ni uning zarar keltirishi quvvatdan to‘liq foydalanilmaganligi bilan emas, balki mahsulotning resurs talabchanligi bilan bog‘liq.

Bu yondashuv IAS 2 standartining talablariga ham to‘liq mos keladi. Standartga ko‘ra, doimiy ishlab chiqarish qo‘shimcha xarajatlari ishlab chiqarish quvvatlarining me’yoriy darajasi asosida taqsimlanadi, ishlab chiqarish hajmi past bo‘lishi yoki quvvatlarning bo‘sh turishi sababli taqsimlanmagan qo‘shimcha xarajatlar esa yuzaga kelgan davr xarajati sifatida tan olinadi[5]. Shunday qilib, TDABC boshqaruv hisobi va moliyaviy hisobot talablarini uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Boshqaruv nuqtayi nazaridan 139,5 mln so‘mlik foydalanilmagan quvvat brigadani qisqartirish, uni boshqa faoliyatlarga jalb qilish yoki qo‘shimcha buyurtmalar qabul qilish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

5. ABC natijalari asosida boshqaruv qarorlari uchun sezgirlik tahlili.

ABC usulining asosiy qiymati tannarxni aniqlashning o‘zida emas, balki uning natijalari asosida qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarida namoyon bo‘ladi. Zarar keltirayotgan C mahsuloti bo‘yicha rahbariyat ixtiyoridagi muqobil qarorlarni baholash maqsadida TDABC asosidagi tannarx bazaviy ko‘rsatkich sifatida olinib, sezgirlik tahlili o‘tkazildi. Birinchi ssenariyda buyurtma shkaflari uchun minimal partiya hajmi ikki baravar oshirilib, sozlashlar soni 110 tadan 55 taga qisqaradi deb faraz qilindi. Ikkinchi ssenariyda bunga qo‘shimcha ravishda namunaviy modullar tizimi joriy etilib, C mahsuloti uchun muhandislik soatlari 30 foizga (1 100 soatdan 770 soatga) kamayadi. Uchinchi ssenariyda

tannarx o‘zgarmagan holda sotish narxi 3 200 ming so‘mga oshiriladi. Hisob-kitob natijalari 8-jadvalda keltirilgan.

8-jadval

C mahsuloti bo‘yicha boshqaruv qarorlarining sezgirlik tahlili

Ssenariy	Birlik tannarxi, ming so‘m	Sotish narxi, ming so‘m	Rentabellik, %	Yillik natija, mln so‘m
Bazaviy holat (TDABC bo‘yicha)	3 064,00	3 000	–2,1	–64,00
1. Partiya hajmini oshirish (sozlashlar 110 → 55)	2 973,25	3 000	+0,9	+26,75
2. 1-ssenariy + modulli loyihalash (muhandislik soatlari –30%)	2 874,25	3 000	+4,2	+125,75
3. Sotish narxini oshirish (tannarx o‘zgarmaydi)	3 064,00	3 200	+4,3	+136,00

Manba: muallif hisob-kitoblari.

8-jadval natijalari C mahsulotidan voz kechish yagona yechim emasligini ko‘rsatadi. Partiyalarni yiriklashtirishning o‘zi mahsulotni zararsizlik nuqtasidan yuqoriga chiqaradi, modulli loyihalash bilan birgalikda esa rentabellik 4,2 foizga yetadi. Narxni oshirish ham shunga yaqin natija beradi, biroq u bozorning narx o‘zgarishiga sezgirligiga bog‘liq bo‘lib, buyurtmalar sonining kamayishi xavfini tug‘diradi.

Shu bilan birga, muhim uslubiy jihatni ta’kidlash lozim. 1- va 2-ssenariylardagi tejamkorlik faqat bo‘shagan quvvat qisqartirilgan yoki boshqa ishlarga yo‘naltirilgan taqdirdagina korxona foydasiga real ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, 1-ssenariyda sozlash brigadasining foydalanilmagan quvvati 27 900 daqiqadan 46 050 daqiqaga (230,25 mln so‘m) ko‘payadi. Agar brigada tarkibi o‘zgarmasa, bu xarajat korxonadan chiqib ketmaydi, faqat mahsulot tannarxidan foydalanilmagan quvvat xarajatiga ko‘chadi. Aynan shu sababli TDABC usuli boshqaruv qarorlarining haqiqiy iqtisodiy samarasini baholashda an’anaviy ABC usulidan ustun hisoblanadi.

6. ABC natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish.

ABC usulini joriy etish korxonaning moliyaviy hisob tizimini almashtirishni talab qilmaydi. U milliy schyotlar rejasi (BHMS 21) doirasida umumishlab chiqarish xarajatlari schyotiga faoliyat turlari bo‘yicha analitik schyotlar ochish orqali amalga oshiriladi. Bunda 2510 “Umumishlab chiqarish xarajatlari” schyotiga quyidagi analitik schyotlar ochiladi: 2510-1 “Uskunani sozlash”, 2510-2 “Materiallarni qabul qilish va tashish”, 2510-3 “Sifat nazorati”, 2510-4 “Mashina ishlashi”, 2510-5 “Loyihalash va texnik tayyorlash”. 2010 “Asosiy ishlab chiqarish” schyotida esa mahsulot turlari bo‘yicha analitik hisob yuritiladi. «Umid» Biznes Mchj korxona misolida asosiy buxgalteriya yozuvlari 9-jadvalda keltirilgan.

9-jadval

ABC natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish yozuvlari (mln so‘m)

№	Xo‘jalik muomalasi mazmuni	Debet	Kredit	Summa
1	Sozlash brigadasiga mehnat haqi hisoblandi	2510-1	6710	(hisob-kitob bo‘yicha)
2	Uskunalarga amortizatsiya hisoblandi (faoliyatlar bo‘yicha)	2510-4	0200	(hisob-kitob bo‘yicha)
3	Sozlash xarajatlari A mahsulotiga taqsimlandi (TDABC)	2010-A	2510-1	36,0
4	Sozlash xarajatlari B mahsulotiga taqsimlandi (TDABC)	2010-B	2510-1	63,0
5	Sozlash xarajatlari C mahsulotiga taqsimlandi (TDABC)	2010-C	2510-1	181,5
6	Foydalanilmagan quvvat xarajati davr xarajatiga o‘tkazildi	9430	2510-1	139,5
7	Boshqa faoliyatlar xarajatlari A mahsulotiga taqsimlandi	2010-A	2510	735,0
8	Boshqa faoliyatlar xarajatlari B mahsulotiga taqsimlandi	2010-B	2510	652,5
9	Boshqa faoliyatlar xarajatlari C mahsulotiga taqsimlandi	2010-C	2510	742,5
10	Tayyor mahsulot omborga kirim qilindi (haqiqiy tannarxda)	2810	2010	(kalkulyatsiya bo‘yicha)

Manba: BHMS 21 asosida muallif ishlanmasi.

9-jadvalda keltirilgan yozuvlar ABC usulining hisob tizimiga integratsiyasini ko‘rsatadi. Sozlash faoliyati bo‘yicha xarajatlar TDABC asosida taqsimlanib, foydalanilmagan quvvat qiymati 9430 “Boshqa operatsion xarajatlar” schyotiga hisobdan chiqariladi. Qolgan to‘rt faoliyat bo‘yicha xarajatlar (2 130 mln so‘m) 5-jadvaldagi ABC taqsimoti asosida mahsulotlarga o‘tkaziladi. Natijada mahsulot tannarxi nafaqat boshqaruv maqsadlari uchun aniqlashadi, balki tayyor mahsulot zaxiralari moliyaviy hisobotda IAS 2 va BHMS 4 talablariga mos ravishda baholanadi.

7. ABC usulini korxonalarda joriy etish bosqichlari.

Xorijiy tajriba va tadqiqot natijalari ABC usulini joriy etish texnik emas, balki tashkiliy loyiha ekanini ko‘rsatadi. M. Gosselin tadqiqotida qayd etilganidek, usulni qabul qilgan korxonalarning barchasi ham uni muvaffaqiyatli joriy eta olmaydi. Shu sababli mahalliy ishlab chiqarish korxonalari uchun ABC usulini joriy etishning quyidagi bosqichma-bosqich modeli taklif etiladi:

Tashxis bosqichi – bilvosita xarajatlarning tannarxdagi ulushini, mahsulotlar turli-tumanligini va an’anaviy usul bo‘yicha tannarx buzilishi ehtimolini baholash. Bilvosita xarajatlar ulushi 20–25 foizdan yuqori bo‘lgan va mahsulotlar hajmi hamda murakkabligi bo‘yicha keskin farq qiladigan korxonalar ABC uchun ustuvor hisoblanadi.

Faoliyatlarni aniqlash bosqichi – ishlab chiqarish jarayonlarini tavsiflash, asosiy faoliyat turlarini ajratish va ularni mahsulot birligi, partiya, mahsulot turi hamda korxona darajasi bo‘yicha tasniflash.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

Drayverlarni tanlash bosqichi – har bir faoliyat uchun xarajatlar bilan sababiy bog‘liqligi yuqori va ma’lumotlari mavjud yoki oson yig‘iladigan drayverni tanlash.

Pilot hisob-kitob bosqichi – bitta sex yoki mahsulot guruhi misolida ABC modelini qurish, natijalarni an’anaviy usul bilan taqqoslash va rahbariyatga taqdim etish.

Integratsiya bosqichi – 2510 schyot bo‘yicha faoliyatlar kesimida analitik hisobni joriy etish, hisob siyosatiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish va buxgalteriya dasturida (1C, ERP tizimlari) ABC modulini sozlash.

TDABC va monitoring bosqichi – modelni vaqt tenglamalari asosida soddalashtirish, foydalanilmagan quvvat ko‘rsatkichini muntazam hisobotlarga kiritish va drayver stavkalarini har yili qayta ko‘rib chiqish.

Taklif etilgan modelning afzalligi shundaki, u korxonaga ABC usulini birdaniga emas, balki pilot loyiha natijalariga tayanib, xarajatlar va foydani taqqoslagan holda bosqichma-bosqich joriy etish imkonini beradi. Bu esa J. Innes va F. Mitchell tomonidan qayd etilgan asosiy to‘siq – joriy etish xarajatlarining yuqoriligi xavfini kamaytiradi.

Tadqiqot natijalari R. Cooper va R.S. Kaplan tomonidan aniqlangan qonuniyatni mahalliy ishlab chiqarish sharoitiga xos misolda tasdiqlaydi: hajmga asoslangan yagona baza yuqori hajmli va oddiy mahsulotlar tannarxini oshiradi, kam hajmli va murakkab mahsulotlar tannarxini esa kamaytiradi. «Umid» Biznes Mchj korxonada tannarx buzilishi bevosita mahsulotlarning hajm va murakkablik bo‘yicha farqiga mutanosib bo‘ldi: o‘rta hajmli B mahsuloti uchun farq 0,5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, eng kam hajmli C mahsuloti uchun 27,2 foizga yetdi. Bu holat ABC usulini joriy etishdan oldin korxona mahsulotlari portfelini hajm va murakkablik bo‘yicha tahlil qilish orqali usulning kutilayotgan samarasini dastlabki baholash mumkinligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, tadqiqotning ayrim cheklovlarini qayd etish lozim. Birinchidan, hisob-kitoblar «Umid» Biznes Mchj ma’lumotlar asosida bajarilgan bo‘lib, ular mebel ishlab chiqarishga xos nisbatlarni aks ettiradi, ammo muayyan korxonaning haqiqiy ko‘rsatkichlarini almashtira olmaydi. Ikkinchidan, ABC natijalari drayverlar tanlovi va resurslarni faoliyatlarga taqsimlashdagi ekspert baholarga sezgir. Uchinchidan, ABC bo‘yicha hisoblangan tannarx uzoq muddatli qarorlar uchun mo‘ljallangan, qisqa muddatda esa xarajatlarning katta qismi doimiy bo‘lib qoladi. Kelgusi tadqiqotlarda usulni muayyan korxonalarning haqiqiy ma’lumotlari asosida sinovdan o‘tkazish va drayver stavkalarini ishlab chiqarish axborot tizimlaridan avtomatik olish masalalarini o‘rganish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari ishlab chiqarish korxonalarida umumishlab chiqarish xarajatlarini hajmga bog‘liq yagona baza bo‘yicha taqsimlash mahsulot tannarxini tizimli ravishda buzib ko‘rsatishini va bu buzilish noto‘g‘ri boshqaruv qarorlariga olib kelishini tasdiqladi. Xarajatlarni faoliyat turlari bo‘yicha

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

taqsimlash (ABC) usuli xarajatlarni ularning kelib chiqish sababiga ko‘ra taqsimlab, mahsulot tannarxining haqiqiy tuzilmasini ochib beradi.

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy natijalar olindi:

1. An’anaviy usul va ABC usulining qiyosiy tahlili asosida ABC usulini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lgan shart-sharoitlar aniqlandi: bilvosita xarajatlar ulushining yuqoriligi, mahsulotlar turli-tumanligi va mahsulotlarning faoliyatlarni iste’mol qilishdagi keskin farqlari.

2. ABC usulining ikki bosqichli konseptual modeli va uning hisob-kitob formulalari tizimi shakllantirildi, faoliyat turlarini to‘rt ierarxik daraja bo‘yicha tasniflash asoslandi.

3. «Umid» Biznes Mchj mebel ishlab chiqarish korxonasi misolida an’anaviy usul yuqori hajmli standart mahsulot tannarxini 10,9 foizga oshirib, kam hajmli buyurtma mahsuloti tannarxini 27,2 foizga kamaytirib ko‘rsatishi raqamli isbotlandi. An’anaviy hisobda 18,7 foiz rentabelli bo‘lgan buyurtma mahsuloti ABC bo‘yicha 3,4 foiz zarar keltirishi aniqlandi.

4. TDABC usuli yordamida sozlash faoliyati quvvatining 33,2 foizi foydalanilmayotgani va bu 139,5 mln so‘mlik xarajat mahsulot tannarxiga asossiz kiritilayotgani ko‘rsatildi. Ushbu xarajatni davr xarajati sifatida tan olish IAS 2 talablariga muvofiq ekani asoslandi.

5. Sezgirlik tahlili asosida zarar keltirayotgan mahsulot bo‘yicha muqobil qarorlar baholandi: partiyalarni yiriklashtirish va modulli loyihalash mahsulotni 4,2 foiz rentabellikka chiqarishi, biroq bu samara bo‘shagan quvvat qisqartirilgan yoki boshqa ishlarga yo‘naltirilgan taqdirdagina real bo‘lishi asoslandi.

6. ABC natijalarini milliy schyotlar rejasida 2510 schyotga faoliyatlar bo‘yicha analitik schyotlar ochish orqali aks ettirish tartibi va tegishli buxgalteriya yozuvlari ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Bilvosita xarajatlar ulushi yuqori va mahsulot assortimenti keng bo‘lgan ishlab chiqarish korxonalarida hisob siyosatiga ABC usulini boshqaruv hisobi maqsadlari uchun qo‘llash tartibini kiritish.

2. Korxonalarda ABC usulini taklif etilgan olti bosqichli model asosida, avval pilot loyiha shaklida, so‘ngra butun korxona miqyosida joriy etish.

3. Model yuritish xarajatlarini kamaytirish va foydalanilmagan quvvatni aniqlash maqsadida ABC usulini TDABC vaqt tenglamalari bilan uyg‘unlashtirish.

4. Moliya vazirligi tomonidan umumishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash bazalarini tanlash va foydalanilmagan quvvat xarajatlarini hisobga olish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

5. Mahalliy buxgalteriya dasturlarida faoliyatlar bo‘yicha analitik hisob va drayver stavkalarini avtomatik hisoblash modullarini yaratish.

6. Oliy ta’lim muassasalarining “Buxgalteriya hisobi” yo‘nalishi bo‘yicha “Boshqaruv hisobi” fanida ABC va TDABC usullari bo‘yicha amaliy keys-stadilarni kengaytirish.

Umuman olganda, ABC usulini joriy etish ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot tannarxi to‘g‘risidagi axborotning ishonchliligini oshirib, narx siyosati,

assortiment boshqaruvi va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini oshirishga hamda korxonalarning raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O‘RQ-404-son Qonuni // https://lex.uz/docs/-2931253
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 54-son qarori // https://lex.uz/docs/-264422
3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. BHMS 4 “Tovar-moddiy zaxiralar”.
4. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. BHMS 21 “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo‘jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma”.
5. IFRS Foundation. IAS 2 Inventories. – London: IFRS Foundation.
6. Johnson H.T., Kaplan R.S. Relevance Lost: The Rise and Fall of Management Accounting. – Boston: Harvard Business School Press, 1987.
7. Cooper R., Kaplan R.S. Measure costs right: make the right decisions // Harvard Business Review. – 1988. – Vol. 66, No. 5. – P. 96–103.
8. Kaplan R.S., Cooper R. Cost & Effect: Using Integrated Cost Systems to Drive Profitability and Performance. – Boston: Harvard Business School Press, 1998.
9. Kaplan R.S., Anderson S.R. Time-driven activity-based costing // Harvard Business Review. – 2004. – Vol. 82, No. 11. – P. 131–138.
10. Kaplan R.S., Anderson S.R. Time-Driven Activity-Based Costing: A Simpler and More Powerful Path to Higher Profits. – Boston: Harvard Business School Press, 2007.
11. Innes J., Mitchell F. A survey of activity-based costing in the U.K.’s largest companies // Management Accounting Research. – 1995. – Vol. 6, No. 2. – P. 137–153.
12. Gosselin M. The effect of strategy and organizational structure on the adoption and implementation of activity-based costing // Accounting, Organizations and Society. – 1997. – Vol. 22, No. 2. – P. 105–122.
13. Gosselin M. The effect of strategy and organizational structure on the adoption and implementation of activity-based costing // Accounting, Organizations and Society. – 1997. – Vol. 22, No. 2. – P. 105–122.

2026-yil, noyabr. №11-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy